

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 19 - 25 - dekabr N:51 (66540)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA




—Biz «Tong yulduzi»ga
sinfimiz bilan to'liq obuna
bo'dik, - deydi poytaxtdagi
17 - lingvistik maktabning
2 - «B» sinf o'quvchisi
Feruz NE'MATOV. — Siz-
chi, obuna bo'ldingizmi?

2-BETDA

UYALIB QOLMAYLIK

«...Kutubxonaga kirib,
atrofni kuzatdim. Chang
bosgan javonlar, yirilgan
varaqlari nomiga yamalib,
sochilib ketay deb yotgan
kitoblarga ko'zim tushdi».


4-BETDA



RADIOBOSHLOVCHI

SARDOR XONANDA BO'LMOQCHI

8-BETDA



Mahkambek sho'x-shodon bola,
Buvisining erkasi.
Tilagimiz - porloq bo'lsin,
Erkatoyning ertasi.

YANGI YILDA ONAMGA SHIFO SO'RAYMAN

Menda har yili yangi yil arafasidagi
teleko'rsatuvlarni ko'rib, poytaxtlik tengdosh-
larimga juda ham havasim keladi. Bizning
qishlog'imizda shahardagidek archa bayramlari-
yu bayram tantanalari yuk-da. Bayram
dasturlarini kuzatib, qaniydi men ham o'sha
yerda bo'lib qolsam, deya orzu qilaman.

Aslida-ku, oyimlarning betoblighi tufayli,
uydan ko'chaga chiqib olmayman. Maktabimiz
uyimizdan ancha o'lis. Shuning
uchun mak- **Niyat** tabga ham ba'z-
an borolmay qolaman. Sinf doshlarim
kelib, meni, oyijonimni hollaridan xabarlashib
turishadi. Men ulardan maktabimizdagi
yangiliklar, uyga berilgan vazifalarni so'rab, bilib
olaman. O'qishga ishtiyoqim juda baland.
Oyijonimning keyingi paytlarda kasallari yanada
zo'rayib ketdi. Ularning dardlariga sherik bo'lar
ekanman, kelajakda beminnat, vazifasini
sidqidildan ado etadigan, shirinso'z shifokor
bo'lishni orzu qilaman. Poytaxtning eng zo'r
tibbiyot oliygohida o'qib, qishlog'imizdagi
odamlarni hech qachon kasal bo'lmasliklari
uchun ularning holidan sog' paytlarida xabar
olib turaman. Aytishlaricha, yangi yil arafasida
so'ralgan tilaklar albatta ijobat bo'larkan. Men
oyijonimning dardlariga shifo tilayman. Yangi
yilda ular sog'ayib, oyoqqa turib ketsinlar.

Oynisa SOTIBOLDIYEVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumani.

XORAZMLIK O'QUVCHILAR O'Z GAZETASINI NEGA O'QIMAYDI?

Yurtimizdagi barcha ta'lim
maskanlarida 2006 - yil uchun
qizg'in borayotgan obuna
jarayoni yakunlanish arafa-
sida. Respublika bolalar va
o'smirlarining yagona gazetasi
«Tong yulduzi»ga ham
minglab bolajonlar birinchi-
lardan bo'lib allaqachon obuna
bo'lishdi. Bu borada olib
borilayotgan amaliy ishlarning
natijasini bilish maqsadida
Xorazm viloyati Xalq ta'limi
boshqarmasiga sim qoqdik.
Bizni nashrlar obunasi
bo'yicha mas'ul Zuhra opa
Ro'zimatova bilan bog'lab

berishdi.

— Nega xorazmlik o'quv-
chilar «Tong yulduzi»ga obuna
borasida boshqa viloyatlardagi
do'stlaridan ancha orqada? -
degan haqli savolimizga Zuhra
opa ajablanganicha:

— Yo'q-yo'q, **Qo'ng'iroq**
hecham oxirgi o'rinda
emas, reja bo'yicha 2705 nusxa
gazetaga obuna bo'lishimiz
lozim edi, hozirgacha bu
ko'rsatkich 1012 donaga yetdi,
- dedilar. Vo ajabo, 50 foiz ham
emas, yil yakunlanishiga bor-
yo'g'i sanoqli kunlar qolayapti-
yu, javobni qarang. Axir

Xorazmdan nufuzli viloyatdagi
539 ta maktabda 325607 nafar
o'quvchi ta'lim olishsa... Ana
sizga ibrat! Buyuk allomalar
yurti, ular ta'limotining
davomchilari, xorazmlik uka-
jonlar va singil-
jonlar, sizlarga nima bo'ldi?
Sevimli gazetangizni muntazam
ravishda o'qib turmasangiz,
diyorimiz va dunyo miqyosidagi
yangiliklar-u, tengdoshlaringiz
hayoti va ijodi, ta'lim tizimidagi
islohotlarni, haq-huquqlaringizni,
mehribon ustozlaringiz tajribasi-
yu, mashhurlik shohsupalari

bilan qachon tanishib borasiz.
Vaqt nomli uchqur ot kutib
turmaydi. Siz ertamiz egalari
bizning umidimizsiz. Xorazm
XTBdagi mutasaddilarga
aytar so'zimiz — g'aflat
uyqusidan tezroq uyg'oning.
Obunadek ziyo ulashuvchi
o'ta muhim jarayonni hech
kimning paysalga solishga
haqqi yo'q! O'quvchi o'z
gazetasini o'qimasa... qo'liga
tushgan yengil-yelpi kitoblari-
u, turli oqimga mansub
varaqlarni o'qiydi-da?!

Jamila ERDONOVA.

Odatda yangi yil arafasida hammaning asabini buzadigan pirotexnik vositalar ovozi to'ylarda, turli marosimlar chog'ida ham eshitish mumkin. Bunday vositalarning respublikamiz hududiga kirib kelmasligi uchun harchand harakat qilmaylik, moddiy manfaatni ham ustun qo'yadigan soxta bilganlaridan farzandlarimiz salomatligidan tadbirkorlar o'z qolmayaptilar.

Ota-onalar diqqatiga!

Kuni kecha Jizzax viloyati IIB xodimlari «Sangzor-15» yo'l-patrul xizmati maskanida «Toshkent-G'ijduvon» yo'nalishi bo'ylab harakatlanayotgan buxorolik A.Baxriddin boshqaruvidagi «Mercedes-Bens» rusumli avtobusni to'xtatib tekshirishayotganda, yo'lovchilardan ikki nafari bezovtalana boshladi. Bu bejiz emas ekan. Avtobus yukxonasida yo'lovchilardan Samarqand viloyati, Paxtach tumanida yashovchi Y.Dilorom va O.Naziraga tegishli 9 ta qutida 213600 dona pirotexnik vositalar olib ketilayotgani aniqlandi.

Paqildoqlar odamni asabini buzayotganidan tashqari turli jarohatlarga ham sabab bo'layotgani achinarlidir. O'tgan haftada Mirzo Ulug'bek tumanidagi 171-maktab o'quvchisi Artyom Golubek petarda (paqildoqning bir turi) sotib oladi. Uni yoqmoqchi bo'lganda, o't sifatizligi uchun qo'lida portlab ketadi. Natijada o'smarning o'ng qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari og'ir jarohatlanadi. Endi u yoza olmayapti. O'tgan yili pirotexnika vositalaridan noto'g'ri foydalanganligi sababli 30 dan ortiq bola turli darajadagi jarohatlar olib, kasalxonalarda davolandi. Bu haqda matbuotda keng yoritildi, jabrlangalar televideniye orqali paqildoqlar bilan o'ynashning ayanchli oqibatlar haqida tengdoshlariga gapirib berdilar.

Biroq bu yil ham paqildoqlarning ovozi asabga tegyapti. Arzimagan pulni deb, o'zgar salomatligiga putur yetkazayotganlar paqildoqlardan jarohat olgan bolalarning o'rniga o'z farzandlarini qo'yib ko'rsalar, biroz insofga kelarmidilar, deb o'ylaymiz.

Avaz SAIDAHMEDOV,
12-XYOXO KBIB boshlig'i, kapitan.



O'ZBEKISTONIM

O'zbekistonim, ona diyorim,
Baxshida etgum tanamda jonim.
Ko'z ochib ko'rdim sahovatingni,
Tinchlik barq urgan saodatingni.

Ulg'aysam, albat farzanding bo'lib,
Xizimatingga shay ko'kragim kerib.
Sog'lom ulg'ayib, quvvatga to'lay,
Sarhadlaringning posboni bo'lay.

Temur ODAMBOYEV,
Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi
«Go'zal» bog'cha-maktab majmuasining
2- sinf o'quvchisi.

POYTAXTDA YULDUZ

Yangi yil bayrami juda yaxshi-da. Nimagaligini so'ramasangiz ham bo'ladi. Chunki, bu bayram hammaning yoshiga yosh qo'shadi. Men bu yil yangi yilni poytaxtda, xolamlarnikida kutib oladigan bo'ldim. Dadamlarning aytishlaricha, poytaxtda chiroyli joylar juda ko'p ekan. Men ham ana shu joylarga borishimni o'ylasam, yuragim hapriqib ketayapti. Eh, tezroq yangi yil kelsa-yu, Toshkenti azim tomon yo'l olsam...

Javlon TOSHBOYEV, Xorazm viloyati, Gurlan tumani,
5-sinf o'quvchisi.

TALASHIB O'QIYMIZ

Salom, bizning sevimli gazetamiz, «Tong yulduzi»! Biz sinfimiz bilan sening har bir soningni qo'limizdan qo'ymay o'qib boramiz. Maktabimiz kutubxonasiga kelib, bu yerda ham seni talashib o'qiydigan o'quvchilarimiz juda ko'p. Sening barcha maqolalaring qatorida o'quvchilarning hayoti, ularning qiziqishlari, tasavvurlari haqidagi turli hikoyalarni ham birdek sevib o'qiyamiz. Ayniqsa, «Kechirasiz, o'rtoq muallim» hikoyasini berilib o'qidik. Sahifalaringda ana shunday hikoyalar berilib borilishini juda xohlardik. Biz uchun qadrli bo'lgan ustozlar haqidagi maqolalar ko'p berilayotganidan xursandmiz. Bizning maktabimizda ham fidoyi o'qituvchilar juda ko'p. Bularning orasida Muyassar opa, Roza opa, Madina opa, Shohida opa kabi jonkuyar ustozlar ham bor. Biz ularni o'z onamizdek ko'ramiz, hamisha ularni hurmat qilib, ardoqlaymiz. Fursatdan foydalanib, sinfdoshlarim nomidan ularga minnatdorchilik bildirmoqchiman. Har doim sog'-salomat bo'lishsin.

Muyassar KIRGIZOVA, Saida BOBOJONOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumani.

TILGA E'TIBOR

O'zbek tiliga Davlat maqomi berilganiga 16 yildan oshiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ahyon-ahyonda o'z ona tilimizning imlo qoidalarini buzib yozilishi hollari hali ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, bunday xatolarni ta'lim maskanlarida ko'rishimiz achinarli holdir. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan 92-sonli maktabga nafaqat uning hududidagi, balki qo'shni mahallalardan ham o'quvchilar kelib o'qishadi. Maktab binosiga kiraverishda turli shiorlar, hikmatli so'zlar bitilgan rang-barang devoriy gazetalar-u, ko'rgazmalar diqqatimizni tortdi. Yaqinroq borib, ularni o'qishga tutindik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, bu chiroyli iboralarning ayrimlarida qo'pol xatoga yo'l qo'yilgan ekan.

Bu kimning xatosi ekan? Maktab buyurtmasini bajargan rassomningmi yoki buyurtmani shoshapisha devorga osib qo'yavergan «buyurtmachilar»nikimi? Yoki maktabning biron bezori

o'quvchisi ko'rgazmalar nazoratsiz qolgan paytda uni shu holga keltirib qo'yganmikin? Shunday xayolda keyingi ko'rgazmaga yo'naldik va undagi xato ham e'tiborimizni tortdi. Buyuk shaxsning nomini yozishda xatoga yo'l qo'yilgan.

Maktab ostonasiga har kuni ilm o'rganish maqsadida qadam qo'ygan ukajon-u singiljonlarimiz bu diqqatni tortadigan ko'rgazmalardan qanday saboq olisharkin? Oldimizdan o'tib ketayotgan o'quvchidan mazkur ko'rgazmani qanchadan beri shunday holda turganini so'radik. Bolakay «Iye-e, nima deb yozilibdi?», deya o'qiy ketdi. Demak, u bunga avval sira e'tibor bermagan. Bir tarafdin shunisiga ham xursand bo'ldik. Qani endi maktabning barcha o'quvchilari ham hali o'qib ulgirishmagan bo'lishsa! Oquvchilar-ku payqashmabdi, ularning ustozlari ham loqaydmikin-a...

MUHIDDIN.

«YANGI YIL TEZROQ KELA QOLSAYDI...»

«Tong yulduzi»ni muntazam o'qib boraman. Unda tengdoshlarimni maqtab, ularning yutuqlari haqida juda ko'p yozishadi. Men esa mehribon ustozimiz Muattar opa Xoligovani maqtamoqchiman. Ular bizga xuddi o'z onamizdek bo'lib qolganlar. Sababi, maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan kunlarimizdan buyon biz bilan birgalar-da. Ular tufayli harf tanidik, o'qish-yozishni o'rgandik. Hozir ularning maslahatlari bilan maktabimiz qoshida ochilgan ingliz tili to'garagiga qatnayapman. «Til bilgan

el biladi» deyilar bizga ustoz. Muattar opa maktabimizda 1998-yildan buyon yetakchi bo'lib ish boshlagan ekanlar. Shundanmi, maktabda juda ishlari ko'p. Ular boshqarib kelayotgan «Yashil chiroq» guruhimiz a'zolari mana besh yildirki, tuman bellashuvlarida I-o'rindan tushmay kelishyapti.


Shuncha yumushlaridan ortib, bo'sh vaqtlarimizning maroqli o'tishiga ham o'z hissalarini qo'shib kelyaptilar. Bugun qizlarimiz «Balli, qizlar!» musobaqasida bellashsalar, ertasi kuni biz «Balli, yigitlar!» tanlovini o'tkazamiz.

Ayni kunlarda yangi yil

bayramiga qizg'in hozirlik ko'ryapmiz. Ustozimiz bu yilgi bayramni avvalgilaridan boshqacharoq qilib o'tkazish niyatidalar. O'g'il bolalar bilan qiz bolalar navbatma-navbat she'r, qo'shiq aytarkanmiz. Tayyorlagan kulguli sahna ko'rinishlarimizni Qorbo-bo bilan Qorqizlar baholab borishar, g'oliblarni esa sirli sovg'alar kutayotgan ekan.

Eh, biram ichim qizib ketyapti, yangi yil tezroq kela qolsaydi!

Feruz NE'MATOV,
Poytaxtdagi 17 - lingvistik maktabning 2 - «B» sinf o'quvchisi.



Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston Xalq yozuvchisi:

— O'g'illarim Ohangaron tumanidagi, qurama tog'lari etaklarida dehqonchilik qilishadi. Goho ularni ko'rgani - «hormang», «bor bo'ling» degani, goho shaharning diqqinafas havosidan qochib tog'oldi yaylovlar-u kengliklarni qo'msab boraman. Borganimda, tabiiyki «Yangihayot» jamoa xo'jaligida «Qora qir» qishlog'idagi kichikkina, lekin hamisha gavjum bo'ladigan, ozoda, sarishta deb nom olgan maktablarda ham bo'laman. O'quvchilar bilan suhbatlashaman, muallimlar bilan fikr almashaman, katta-kichik bayram-u yig'ilishlarida, bahslarida, musobaqalarida ishtirok etganimda, talaygina o'g'il-qizlarni ko'rib dilim yayrab ketadi. Uzoq-uzoq qishloqlarda ham ilmga, madaniyatga, ko'proq bilishga qiziqish kuchli ekanligini ko'rib qalbim quvonchlarga to'ladi.

Tanishganlarim, kuzatganlarim orasida «Qora qir» qishlog'idagi 2- sonli o'rta maktab o'quvchisi jajjigina Dilafrō'z ko'proq e'tiborimni tortdi. Voy bu qizaloqning sersavolli, qiziqmagan sohasi yo'qdek, hamma narsani shu bugunoq, shu saotdayoq bilib olgisi kelardi. Bir borganimda uning sinf boshlig'i bo'lganini ko'raman, boshqa gal borganimda allaqanday to'garak tuzib dugonalarini holi-joniga qo'ymay, nimanidir o'rgatib, mashq qildirayotganini ko'raman. Raqs tushishni, bichish-tikishni o'rganibdi, dugonalariga ham o'rgatibdi. Dilafrō'zning tabiatida bosh-qosh bo'lish, tengqurlarini uyushtirish, hammadan oldinda borish, ortidan kelayotganlarga ko'proq o'rgatishga o'xshash holati shakllanib borayotganini kuzatgandek bo'ldim. Alloh bandasiga yo u, yo bu iste'dodni, qobiliyatni berib

ISTE'DODNING NOZIK CHECHAGI

yaratadi.

Birovda yozuvchilikka, birovd quruvchilikka, birovd bog'bonlikka bo'lgan havas-intilish juda yoshligida, hatto chaqaloqligidayoq namoyon bo'ladi. Gap endi ana shu ALLOH bergan iste'dodni-mayillikni ertaroq anglab yetishda-yu, tezroq rivojlan-tirishida qoladi. Dilafrō'z qizimiz tashkilotchilik, teng-qurlarini yaxshi maqsadda uyushtirish qobiliyati borligini ertaroq anglagan. Muallimlari undagi ana shu holatni rivojlanishiga yordamchi bo'lishgan. Mana endi qizimiz, goh o'zi o'qigan maktabda, goh tuman markazida bo'ladigan tantanalarda, bayram-larga mos keladigan dasturlar tuzadi, ssenariylar yozadi. Ularning ijrosini ham o'zi boshqaradi. Hozir taqsil olayotgani Toshkent Melioratsiya-suv xo'jaligi kollejida ham Alloh bergan qobiliyatini yanada takomillashtirib, o'nlab dugonalarini g'ayratiga g'ayrat, tashabbusiga tashabbus qo'shib o'qiyapti. Men uning tumanda bo'lib o'tgan Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayram tantanasida o'zi tuzgan ssenariysi bilan, o'zining ijrosi bilan hammani qoyil qoldirib,



olqish ustiga olqishlar olganiga guvoh bo'lganman.

*Oyu-quyosh kelsa sen uchun kular,
Bosgan qadamingda chechaklar unar,
Sen uchun go'zallik, sen uchun gullar,
Davralarning to'ri sen uchun ayol,
Maqtovlarning zo'ri sen uchun ayol,* - deb shirali, quvnoq ovozdā she'r o'qiganida davrada o'tirgan qizlarning, ona-

yu opalarning hammasi bu satrlarda o'zlari ulug'lanayotganligini sezib, qalblari quvonch-u g'ururga to'lib qarsak ustiga qarsak chalishardi. O'rtani olib borayoigan kishi aytayotgan so'zlari kimlarga qaratilayotganini, qanchalik ta'sir qilayotganligini, qanaqangi ma'no, qanaqangi zavq berayotganligini his qilib turishi kerak bo'larkan. Dilafrō'zga esa Alloh boshqa qobiliyatlari qatori tinglovchilarni his qilish qobiliyatini ham bergan ekan. O'sha xotin-qizlar bayrami kuni Dilafrō'zning kishilarga so'z orqali ta'sir etish quvvati ham kuchli ekanligini ko'rgach, men uning boshqa bayram-u, boshqa tadbirlar uchun yozgan ssenariylari bilan ham tanishdim, qizimni kamoloti qay darajada yuksalib borayotganligini bilgim keldi. Boisi, unga ham beshinchi sinfdaligidayoq, oq yo'l tilagan edim. Bo'sh kelma qizim, Xudo xohlasa sendan yaxshigina notiq, yaxshigina suxandon, yaxshigina tashkilotchi chiqadi, deb aytgan edim. Ana shu yaxshi niyatim nechog'li amalga oshayotganligini ham bilmogchi bo'ldim. Qizimiz anchagina ssenariylar yozibdi, bezaklari shunday ixcham, shunday shirali, ta'sirli til bilan, faktlar va zarur raqamlar boy qilib yozilganki, rahmat aytging keladi. Bezaklar ustida o'zi ishlaganligi shundoqqina ko'rinib turibdi. Lekin hammasi emas, afsuski, hammasi emas. «Qalbdan yaralgan navolar», «Gulla, yashna hur O'zbekiston» ssenariylari ustida ko'p ishlashga to'g'ri keladi.

Shunday bo'lsa ham Dilafrō'z qizimga yana bir marta oq yo'l tilagim, mehnat, mehnat va yana mehnat, izlanish, izlanish va yana izlanish deb avvalgi safar aytgan gapimni yana bir karra takrorlamogchiman!

Odatda, o'rta maktabni tugatish arafasidagi har bir yigit-qizning oldida bir savol ko'ndalang turadi: Kim bo'lsam ekan?..

Lekin bu savol Sevara Qurbonovani unchalik o'ylantirmadi. Sababi, maktabda o'qib yurgan kezlari danoq «O'yla, izla, top!» ko'rsatuviga boshlovchilik qilib yurgan opasi Irodaga astoydil havas qilib, uningdek boshlovchi bo'lishni ko'ngliga qo'ygandi. Har safar ko'rsatuvning suratga olinish jarayonini kuzatib o'tirar, ishtirokchilar yutug'idan astoydil quvonib, mag'lubiyatlaridan xafa bo'lardi...

Keyinchalik qo'shiqchilik yo'lini tanlagan opasi ko'rsatuvdan ketadi. Yangi boshlovchilik o'rni uchun esa tanlov e'lon qilindi. Ko'plab tengdoshlari kabi Sevara ham bu tanlovda ishtirok etib, iqtidorini bir sinab ko'rishga ahd qildi. Omadi chopib, opasi boshlovchilik qilgan ko'rsatuvni olib borish aynan unga nasib qildi. Hozir esa unga opasidan o'rganganlari juda asqotyapti. Bilmaganlarini so'rab o'rganadi. Ko'rsatuv rejissori Mirpo'lat Mirkamolov hamda muallifi Abdujabbor Mirzamuhammedovlar unga ayrim paytlarda aytadigan gaplarini so'zma-so'z aytib turishi, kamera oldidagi hayajonini yo'qotib kuldurishi katta daldadir. Ularning ota kabi - Sevara qizim, shoshma, seni 25 million aholi ko'rayapti», -deb ta'kidlashlari esa ko'rsatuv olib borishidagi mas'uliyatini yanada oshiradi. Umuman olganda, men juda mehribon, bilimdon, eng asosiysi, fe'li keng va chin ma'nodagi bardoshli ustozlar yaratayotgan ko'rsatuvni olib borayapman, deydi. Shuning uchun bo'lsa kerak O'zbekiston televideniyesiga oshiqib kelaman. Bu borada menga boshlovchi Bahrom aka ham yo'l-yo'riqlar ko'rsatib turadilar... Ha, Sevaraxon o'z tengdosh-lariga xolis xizmat qilayotganidan mamnun. Ustozlari, hamfikir va maslakdoshlarining ko'maklaridan minnatdor. Zamon olg'a chopib bormoqda. Bilimni oshirmasa, dunyoga ko'z tutib qadamini ona yer uzra mahkam bosmasa, ortda qolib ketish hech gap emas. Shuning uchun ham Sevaraxon Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Xalqaro munosabatlar fakultetida tahsil olyapti. Ham til o'rganib, ham telejurnalistikaning sirlariga kalit izlab kelajakka intilayotgan Sevara meni hamisha qo'llab-quvvatlab, hamfikir bo'lib kelayotgan onajonimdan behad minnatdorman, deydi. Agar ular menga sharoit yaratib bermaganlarida ham o'qish, ham ayrim paytlarda butun kunimni sarflaydigan ko'rsatuvlarimni birgalikda olib borishni eplay olmasdim... Dilda ishtiyoq bo'lsa, imkon topilarkan.

Ha, «O'yla, izla, top!» ko'rsatuvining boshlovchisi dilida behad ishtiyoq: — Ko'rsatuv yaxshi chiqsin, har ikkala tomon bizdan ranjimasin. Sog'lom raqobat va bilim darkor.

Nargiza AKBAR qizi.



«O'YLA, IZLA, TOP!»DA SOG'LOM RAQOBAT



«KITOBLAR HAYOTIY YOZILSA...»

Maktab kutubxonalari. Hozir ular qanday ahvolda? Zamon talablariga javob bera oladimi? O'quvchilar bilan gavjummi?..

To'garagimizning navbatdagi mashg'ulotida ziyrak va sinchkov qalamkashlarimiz ana shu kabi savollarga javob topishga intilishdi.

«Ayrim» deyishimning boisi, hozirgi kunda hamma yoshlarimiz ham kitob o'qishni yoqtira-

yuborilganligi bois uni o'qish uchun ketgan vaqtinga achinib ketaman. Shunda o'z-o'zimga savol beraman: Nima uchun A. Qodiriyning «O'tkan kunlar»i, «Mehrobdan chayon»ini takror va takror o'qib zerikmaymiz? Ularni o'qib, o'sha uzoq o'tmishni o'z ko'zimiz bilan ko'rgandek, voqea va hodisalarning jonli guvohidek bo'lamiz? Javobni ham o'zim topgandek bo'lamen: Chunki ular hayotiylikka juda yaqin, sodda va ravon tilda yozilgan.

Menimcha, hozirgi kunda nafaqat maktab kutubxonalari, balki tuman hamda shahar kutubxonalari ham zamon talablari darajasida emas. Chet ellik tengdoshlarimiz internet orqali bir kutubxonada bo'lma-gan kitoblarni boshqasidan topib o'qiyotganlarini eshitib, juda havasim keladi. Bizdagi kutubxonalarga ham jiddi-roq e'tibor berish vaqti kelmadimikan?

verishmaydi. To'g'ri, texnika asrida, tezkor zamonada yashayapmiz. Har qadamda kompyuter. Yoshlarimizga biror ma'lumot kerak bo'lsa, kitobdan emas, internetdan qidirishayotgani ham sir emas. Lekin, menimcha kitobning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.

Keyingi paytlarda tez-tez quloqqa chalinayotgan, «yoshlarimiz kitob o'qimay qo'yishdi» degan gaplarda ham jon bor albatta. Lekin bu holda faqat yoshlarni ayblash ham noto'g'ridek, nazarimda. Chunki ba'zi kitoblarni o'qib, hayotiylikdan yiroqligi, voqealarning haddan ziyod bo'rttirib

Nodira SAGATOVA,
«International House Tashkent» litseyining II - «S» sinf o'quvchisi:
– Bolaligimda mening ham xuddi dadamnikidek katta kutubxonam bo'lishini orzu qilardim. Men uchun eng qimmatli sovg'a kitob ekanligini yaxshi bilgan otam, yaqinlarim, do'stlarim bayramlarda, tug'ilgan kunimda qo'g'irchog'-u o'yinchoqlar emas, aynan kitob sovg'a qilishardi.

Shu tariqa mo'jazgina kutubxonam boyigandan boyib boraverdi. Hozirda u nafaqat mening, ayrim kitobsevar do'stlarimning ham sevimli maskaniga aylangan.

Nigora MIRSODIQOVA,
Sobir Rahimov tumanidagi Komiljon G'afurov nomli

315 - maktabning 10 - «B» sinf o'quvchisi:

– Kutubxona deganda ko'rkam, shinam, yorug' va osuda xonalarni tasavvur qilardim. Bir dugonam tahsil olayotgan maktab kutubxonasiga kirib, atrofni kuzatdim. Chang bosgan javonlar, yirtilgan varaqlari nomiga yamalib, sochilib ketay deb yotgan kitoblarga ko'zim tushdi. Kutubxonachi opa esa bu oddiy holdek nimalarnidir o'ylab o'tirardilar. Menimcha, ular nafaqaga chiqqan kekka onaxon bo'lsalar kerak. Bir chekkada avgust oyidan beri taxlanib yotgan gazeta-jurnallar chang bosib yotardi. Shunda ayrim qizlarning «O'qish boshlanishi bilan obunaga pul yig'ib olishadi-yu, lekin bitta ham gazeta-jurnal qo'limizga tegmaydi», degan so'zlari yodimga tushdi. Ulardan, bu nashrlarni egalariga tarqatmaysizlarmi, deb so'rasam, kerak bo'lsa o'zlari olib ketishadi, dedilar. Vaholanki, o'sha qizlar obuna nashrlarini bu yerdan olib ketish lozimligini ham bilishmasa kerak.

Bu holatlardan dugonam juda uyalib ketdi. Menimcha, u emas, maktab rahbarlari, kutubxonachi opamiz uyalsalar, to'g'ri bo'lardi...

Keling, aziz tengdoshlarim, kutubxonalarimizni o'zimiz zamonaviylashtiraylik. Rang-barang kitoblarga, qiziqarli ma'lumotlar to'plami bo'lgan ensiklopediyalarga, jurnallarga to'ldiraylik. Toki, bizning maktab kutubxonamizga kirgan do'stlarimiz oldida uyalib qolmaylik.

Gulira'no MUSAYEVA,
Shayxontohur tumanidagi 186 - maktabning 4 - «B» sinf o'quvchisi:

– Sizlarda qanaqa bilmadim-u, bizning maktabda katta tanafusda yo'laklarga bola sig'may ketadi. Shovqin-suron, baqir-chaqir, kimdir oshxonaga, kimdir ko'chaga yugurgan...

Men esa ko'pincha maktabimiz kutubxonasiga oshiqaman. Yangi kitob kelgan bo'lsa, uni darhol o'qib chiqish uchun olaman.

Tunov kuni kutubxonachimiz Komila opa bilan kitoblarni xususida gaplashib o'tirgandim. Ular biroz ranjibroq:

– Kitob o'qimaydigan bolalardan ranjiymiz-u, gohida o'qiydiganlaridan ham xafa bo'lib ketaman-da,-deb qoldilar.


– O'qiyman deb kitob olib ketadilar-da, qaytarishga kelganda, ukam yirtib qo'yibdi yoki singlim chizib tashlabdi, deya ko'tarib kelishadi. Ayrimlari yo'qotib...

Komila opa hali gaplarini tugatib ulgurmaslaridan 7-sinfda o'qiydigan bir qiz kirib kelib, kimyo kitobini so'radi. Komila opa, qizim, sen hali olgan kitobingni topshirmading-ku,

desalar, uni ukam yirtib tashladi, deya boshini egdi. Komila opa kimyo kitobini uzoq qidirib topolmadilar. Haligi qiz bo'lsa, aldayapsiz, deya jahl bilan eshikni yopib chiqib ketdi. Mening yonimda noqulay ahvolga tushib qolgan kutubxonachi opamizga qanday dalda berishni ham bilmay qoldim.

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, sizning maktabingiz kutubxonasida ahvol qanday? Mana shunday soxta «kitobxonalar» ham uchrab turadimi?

SOXTA
KITOBXON
QIZ



Kutubxonam - nurxonam

KUTUBXONANGIZGA BIR KIRIB KO'RING

Durdonabegim, QODIROVA,
Toshkentdagi 129 - maktabning 8 - «B» sinf o'quvchisi:

– Ko'pincha tengdoshlarim bilan kitobxonlik xususida suhbatlashib qolganimizda, ular maktab kutubxonalari shart-sharoitning yo'qligi, qiziqarli

kitoblar kamligi haqida gapirishadi. Men ham avvallari shunday o'ylardim. Lekin bir kuni kutubxonaga kirdim-u fikrlarim butunlay o'zgarib ketdi. Barcha zarur anjomlar bilan jihozlangan kutubxonamiz javonlari kirill hamda lotin alifbosidagi kitoblar bilan to'la ekan. Bu yerdan sevimli gazeta

va jurnallarimiz «Tong yulduzi», «Gulxan» va «G'uncha»larning yillik tahlamlarini ham topish mumkin. Maktabimiz 1981 - yilda tashkil qilingan bo'lib, kutubxonachilarimiz Yoqut opa va Ma'suda opalar shu davrdan buyon mehnat qilib kelisharkan. Kutubxonachilar nazarimizda doim bekorchilikdan mudrab o'tiradigandek tuyulishadi. Bizning

nurxonamizda esa hayot qaynaydi. Muqovachilik to'garagi a'zolari yirtilgan, uringan ijara kitoblarini qayta ta'mirlab, uka va singillari uchun tayyorlab qo'yishadi. Yana maktabimizda yaxshi bir an'ana bor: bitiruvchi sinf o'quvchilari kutubxonamiz uchun biror esdalik qoldirishadi. Masalan, o'tgan yili maktabimizdan mustaqil hayotga uchirma bo'lgan aka-opalarimiz O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasining hamma tomlarini hamda Bolalar ensiklopediyasining 2 - tomini sovg'a qilishibdi.

Xullas, maktabimiz kutubxonasiga gap yo'q! Zeriksangiz, bemalol kelavering.

Ha, aytgandek, siz ham kutubxonangizga bir kirib ko'ring-a, balki ahvol unchalik yomonmasdir.



UYALIB QOLMAYLIK

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda so'lim bir qishloq bo'lgan ekan. Bir kuni qishloqqa suv kelmay qo'yibdi. Bu holdan qishloq ahli aziyat cheka boshlabdi. Sababini bilolmay, chor-atrofga yugurishibdi.

Qishloq chekkasidagi g'aribgina kulbada bir kampir nabirasi bilan yasharkan. Ko'pni ko'rgan, dono ayol uchun bunday jumboqlarning yechimini topish hech gap emas ekan.

– Bolam, anavi tepalikka chiq, kun botar zovurdan o'tib, katta anhor tarafga Suvning yo'lini nima

tarafdagi qara to'sib ekan?–

qo'ygan debdi nabirasiga.

bo'lsa-da, dovyurak bola buvisining bajaribdi.

katta, bahaybat suv yo'lini to'sib yotganmish. Suv boshqa tomonga ketayotganmish.

ko'rganlarini buvisiga

Shunda kampir

– Soyga tushib,

Qamishdan nay yasab, nabirasiga beribdi. Bola nayni chalib ko'rsa, undan juda yoqimli kuy taralibdi. Qushlar ham sayrashdan bir zum to'xtab, nay kuyini tinglashibdi. Tabiat ham jonlanib ketibdi.

– Endi bolam terakka chiq, nayingni chalib, ajdarhoni kuzatgin,–debdi.

Bola buvisining aytganini qilibdi. Ko'p o'tmay ajdarho boshini ko'tarib,

kuyni tinglabdi. Sekin-asta sudralib, tepalikning narigi tomoniga o'tib ketibdi. Suv qishloq ariqlariga sharqirab oqib kela boshlabdi.

Qishloq ahli kampir bilan nabirasini duo qilib:

– Shukr-ey, suvimiz yana qishlog'imizga qaytdi-ya, –deya xursand bo'lishibdi.

Shu yili suv serob bo'libdi, ekinlar mo'l-ko'l hosil beribdi.

Maftuna ESONOVA,

Toshkentdagi 301 - maktabning 11 - «A» sinf o'quvchisi.

O'zimiz ertak yozamiz



Nabirasi yosh ancha ekan. Zumda aytganlarini Qarasa, bir ajdarho

essa oqib Bola

aytib beribdi.

biroz o'ylanib turgach:

qamish kesib kel,–debdi.

Malikamizni ham kesib ketishmasa

Odamlarni ko'rib Malikaning Chunki u yangi yilni o'rmondagi odatlangan ekan-da...

Shu payt arra ko'targan ikki kelib, havas bilan boqishibdi.

– Rosa chiroyli ekan-u, ekan-da, xonaga sig'maydi.

sini kesa qolaylik, – deya

Shunda barcha daraxtlar, laridan chapak chalib

Yangi yil kirishiga

lar Malika archani

– Qorbobo va

chaqiraylik, – debdi

do'rillab. – Ular

bizga sovg'a-

shishadi. Bu taklif

larga ma'qul bo'libdi.

Shu tariqa o'rmon-

boshlanibdi.

«Yaxshiyamki bo'yim

kesib ketishardi-ya...», deya shodlanib qarsak chalibdi Malika-archa.

Malika RAHMONBEKOVA,

«Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.

O'RMON MALIKASI

Qalin o'rmonda bo'yi baland, sershox, barglari doimo zumraddek ko'm-ko'k bo'lib tovlanib turadigan bir archa o'sar ekan. Atrofdagi daraxtlar, butalar unga havas bilan boqib:

– Archamiz o'rmonimiz malikasi, – deya maqtashar ekan. Archa bu maqtovlardan taltayib ketmas, o'rmondagi barcha daraxtlar bilan do'st, inoq bo'lib yasharkan. Har yili o'rmon hayvonlari uning atrofiga jamlanib, yangi yilni kutib olisharkan.

Yangi yil arafasida odamlar bolta va arralari bilan kelib, archalarni kesa boshlashibdi.

– Oh, – deyishibdi daraxtlar, – bo'lgani.

o'zi ham xavotirlanibdi. do'stlari bilan kutishga

kishi uning yoniga

lekin juda uzun

Yaxshisi boshqa-

nari ketishibdi.

butalar sevingan-

yuborishibdi...

barcha hayvon-

yasatishibdi.

Qorqizni ham

ayiqpolvon

salom ula-

barcha hayvon-

da o'yin-kulgu

baland ekan, bo'lmasa

kesib ketishardi-ya...», deya shodlanib qarsak chalibdi Malika-archa.

Malika RAHMONBEKOVA,

«Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.

Bayram dasturxoniga



Kerakli mahsulotlar: 500 gramm tvorog, 150 gramm shakar, 250 ml. qaymoq, yarim choy qoshiq quritib maydalangan limon po'sti, 800 gramm meva (mango, kivi, anjir, apelsin, uzum) zarur bo'ladi.

Tayyorlanishi: Tvorog shakar bilan, qaymoqning yarmi maydalangan limon po'sti bilan aralashtiriladi. Qolgan qaymoq esa mikser yordamida ko'pirtirib, tvorogli massaga qo'shiladi. Mango, kivi, anjir, apelsin, uzum mayda qilib to'g'raladi. Mevalarni alohida idishga, tvorogli massani alohida idishga solib, dasturxonga tortiladi.

MURABBOLI PECHENYE

Kerakli mahsulotlar: 200 gramm margarin, 1 ta tuxum, 150 gramm shakar, 1 ta limon, un, yarim stakan suv.

Margarin unga botirib qirg'ichdan o'tkaziladi, tuxum, limon sharbati, iliq suv, shakar va un solib, xamir qoriladi. Xamir biroz tindirilgach, o'qlovda yoyib, gugurt qutisidek shakllar kesib olinadi. Listga terib, ustiga murabbo va bir qoshiqdan bize surtib, maydalangan yong'oq sepiladi. 15-20 daqiqa davomida pishiriladi.

Yaqimli ishtaha!

Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5 - ixtisoslashtirilgan maktabning 9 -sinf o'quvchisi.



Aziz bolajonlar, respublikadagi tengdoshlaringiz hayoti, qiziqish va intilishlari haqida maqolalar, ichakuzdi xandalar-u biri bog'dan, biri tog'dan so'zlovchi hangomalar, sizni sirli olamga yetaklovchi ertaklar-u boshingizni obdon qotiradigan krossvordlar o'qishni xohlaysizmi? Unda sevimli nashringiz

«TONG YULDUZI»ga obuna bo'lishga shoshiling!

Obuna bahosi bir yilga 5244 so'm.

Nashr indeksi - 198.

SIZNING YURAGINGIZ URIB TURSA BAS

Umidaxon MAHRAMOVA, Samarqand viloyatining Bulung'urt tumanidan. Birinchi sinfdan boshlab she'rlar mashq qiladi. Vatan, ona, ustoz, yoshlik haqida qalbida to'lib-toshgan hislarini oq qog'oz yuziga to'kayotgan Umidaxon 18-maktabning 9- sinfda tahsil olmoqda. Ijod gulshanida yana bir g'unchaning bo'y taratishga oshiqayotganidan shodlanib, ularga oq yo'l tilarkanmiz, ilk mashqlarini sizning hukmingizga havola qilamiz.



TO'RT DUGONA


Bizlar chin dugonalar,
To'rtalamiz yuramiz.
Bir-birimiz qo'llashib,
Shirin suhbat quramiz.
Farida, Sadoqatdan,
Feruzaga o'tadi.
Ahil bo'lib birlashsak,
Barcha yumush bitadi.
Sirimiz qalbimizda,
Inoqlikning belgisi.
Axir chin dugonalar,
Abad shunday bo'lg'usi.

ONAJONIM

Osmondagi charaqlagan porloq yulduzim,
Onajonim siz-la o'tar yorug' kunduzim.
Yuragingiz sahovatga to'lib turadi,
Shundanmikin poyingizda nurlar kuladi.
Toleyimga tole tilab turgan bardoshim,
Onajonim tongni quchar yorug' quyoshim.
Onalarga biror kimsa qilmas yomonlik,
Ular borki, mudom yashar yurtida omonlik.

Umidaxon MAHRAMOVA.

RAQAMLAR NIMA DEYDI?



«Sihat-salomatlik yili» deb nomlangan mazkur yilimiz ham oxirlab boryapti. Respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallarga 2006 - yil uchun obuna ishlari qizg'in davom etayotgan ayni pallada sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning kelgusi yildagi muxlislari soni qanchaga yetganini bilish maqsadida turli viloyatlar, shahar va tumanlar XTBlari xodimlari bilan telefon orqali bog'lanishga harakat qildik.

Mastura USMONDIYOROVA,

Yakkasaroy tuman XTB uslubchisi:

– 16 ta maktabni o'z ichiga olgan tumanimiz reja bo'yicha 140 ta obunani tashkillashtirib berishi kerak edi. Hozirgacha obuna soni 120 taga yetdi. Shundan 40 tasi 6 oyga, 80 tasi bir yilga. Menimcha, bu ham yaxshi ko'rsatkich. Chunki ota-onalarni ham, bolalarni ham biron bir nashrga obuna bo'linglar, deya majbur qilishga haqqimiz yo'q-ku, axir. Chunki maktablarga berilayotgan gazeta-jurnallar soni ko'p. Qay biriga obuna bo'lishni esa o'quvchining o'zi tanlaydi. Agar gazetangiz yanada qiziqarliroq chiqsa, obuna bo'l, deb o'tirishga hojat ham qolmaydi, deb o'ylayman.

Birinchi suhbatdoshimiz Toshkent shahar XTB bo'limi boshlig'i o'rinbosari SOBIROV Abdumannop Gapparovich bo'ldilar:

– Biz ham aynan shu masala xususida tumanlar XTB xodimlaridan tuzilgan shtab a'zolari bilan yig'ilish o'tkazayotgandik.

Bizga bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan 7 nomdagi nashr nomi berilgan. Ularning orasida albatta «Tong yulduzi» gazetasi ham bor. Nashrlar ko'pligi bois, har bir maktab imkon darajasida obuna bo'ladi. Obuna mavsumi davom etayotgani uchun aniq raqamlarni aytishga hali erta. Shu kungacha Toshkent shahri bo'yicha «Tong yulduzi» gazetasiga yakka tartibda 2528 nafar o'quvchi obuna bo'ldi. Maktablarda olib borilayotgan targ'ibot va tashviqot ishlarimiz o'z samarasini bersa, bu ko'rsatkich yanada ko'tarilishi mumkin.

Toshkent shahrida 12 ta tuman bo'lib, har bir tuman XTBDa obuna ishlari bilan shug'ullanuvchi uslubchi va kutubxonachilar bor. Bu borada aniq ma'lumot olish uchun ular bilan ham bog'lanishga harakat qildik. Lekin ish kuni hali tugamagan bo'lishiga qaramay, noma'lum sabablarga ko'ra ayrimlarini ish o'rinlaridan topa olmadik. Ularni obuna masalasida yelib-yugurib yurgan bo'lsalar kerak, deb umid qilamiz. Uchtepa, Mirobod, Mirzo Ulug'bek, Yakkasaroy tuman XTB uslubchilari bilan bog'lanib, quyidagilarni yozib oldik.

D'IQQA, D'IQQA,
RESPUBLIKA BOLALARI VA O'SMIRLARI GAZETASI -
«TONG YULDUZI»GA OBUNA DAVOM ETYAPTI



TONG yulduzi

Aziz bolajonlar, respublikadagi tengdoshlaringiz hayoti, qiziqish va intilishlari haqida maqolalar, ichakuzdi xandalar-u, biri bog'dan, biri tog'dan so'zlovchi hangomalar, sizni sirli olamga yetaklovchi ertaklar o'qib, boshingizni obdon qotiradigan krossvordlar yechishni, shuningdek, taniqli estrada yulduzlaringizning bolalik xotiralari, orzu-umidlariga oshno tutinishni xohlaysizmi?

Unda, sevimli nashringiz «TONG YULDUZI»ga obuna bo'lishga shoshiling!



Gulchehra UMAROVA,

Mirobod tuman XTB uslubchisi:

– Bizda hali rejaning yarmi ham bajarilmadi. Shu bois ham harakatni kuchaytiryapmiz. Yil tugashiga hali bor-ku... Hozirgacha rejadagi 160 obunachidan 70 tasi obuna bo'ldi. Maktablarda o'quvchilar va o'qituvchilar bilan ishlayapmiz, telefon orqali tushunchalar berayapmiz. Yakunini esa yil oxirida ko'ramiz. Hozir aniq bir raqam ham, buncha obuna bo'lamiz, deya va'da ham berolmayman...

Kamola TOSHPO'LATOVA,
Mirzo Ulug'bek tuman XTB uslubchi yordamchisi:

– Bizning tumanga reja bo'yicha «Tong yulduzi» gazetasiga 333 ta obuna topshirilgan edi. Bugungi kungacha bor-yo'g'i 53 ta obuna bo'ldi. Hozir uslubchimiz shu masala bo'yicha maktablarda o'quvchi va o'qituvchilar bilan suhbatlashishga ketdilar. Hali yil tugamadi...

Obuna bahosi bir yilga - 5244 so'm. Nashr indeksi - 198.

Marg'uba TURSUNOVA,

Uchtepa tuman XTB Bosh mutaxassisi:

– Tumanimizda maktablar soni ko'pligi uchunmi, o'quvchilarimiz o'ta qiziquvchanligi tufayli, obuna masalasida oldingi o'ringa o'tib ketibmiz. Bugungi kungacha olgan ma'lumotlarga ko'ra reja 108% ga bajarilibdi. Yil tugagunga qadar bu ko'rsatkich yanada ko'tariladi, deb ishonch bilan ayta olaman.

Demak, hozirgi to'rtlik ichida Uchtepa birinchilikni qo'lga kiritibdi. Biz bu tumanni boshqalarga ham o'rnak bo'lishini istardik. Aziz o'quvchi, tumaningiz yutug'i sizning ham yutug'ingiz. Shunday ekan, sevimli nashringiz «Tong yulduzi»ga sinfingiz bilan obuna bo'lib, tumaningiz g'alabasiga o'z hissangizni qo'shing.

ZUFAROV Muhammadjon, Andijon viloyati XTB mutaxassisi:

– Viloyatimizda reja bo'yicha 6000 o'quvchi obuna bo'lishi kerak edi. Lekin bu ko'rsatkich hozir 4346 tani tashkil etib turibdi. Yangi yilgacha bu ko'rsatkich ko'tariladi, albatta. Axir bu o'quvchilarimizning eng sevimli gazetalariku.

Abduvali QURBONOV, Surxondaryo viloyatidan:

– Respublikamizning chegara viloyatlarida ham bu gazeta obuna bo'lgan bolajonlar soni 3896 taga yetgan. Lekin bu

raqamlar yoniga bir nechta shilishi ham mumkin.

Zaynab XUDOYOROVA, Sirdaryo viloyati, XTB boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari:

– O'tgan yili bu gazeta obunachilarining soni rejadagidan ham ortiq bilan bajarilgan edi. Ayni kunlarda 1387 nafar o'quvchilar obuna bo'lishgan. Lekin bu yil ham o'tgan yildagidek obunachilar sonini rejadagidan ham ko'proq bo'ladi, deb va'da beraman. Bu gazeta har bir o'quvchining xonadoniga nur, ziyo olib kiradi.

Nigora NURALIYEVA,

Namangan viloyati, XTB ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha bosh mutaxassisi:

– Bu yilgi rejamiz «Tong yulduzi» obunachilari sonini 3385 taga yetkazish edi. Shu kungacha bu ko'rsatkich 5335 taga ko'tarildi. Maktabimizda, kutubxonalarimizda bu gazetani qo'ldan qo'yimay o'qiydigan o'quvchilarimiz juda ko'p. Ayniqsa, gazetada maqolasi chiqqan o'quvchilarimizning quvonchi cheksiz. Obuna mavsumi hali tugagani yo'q. Maktabning ichki holatidan kelib chiqib yana o'quvchilarni obunaga jalb qilamiz. Qolaversa, kelgusi yil «Homiylar va shifokorlar yili» deb e'lon qilindi. Homiylarimizni ham obunaga jalb qilib, bu ko'rsatkichni yanada ko'taramiz. Chunki bu gazetaning farzandlarimiz ma'naviyatini shakllantirishda, ongi va tafakkurini o'stirib, dunyoqarashini kengaytirishda tutgan o'rning beqiyosligini hammamiz yaxshi bilamiz...

To'g'risi, bu xabarni eshitib, ko'nglimiz juda yorishib ketdi.

Qaniydi, oramizda Nigora opa singari ma'naviyatli, mas'uliyatli insonlar yanada ko'paysa-yu, ertangi kunimiz egalari bo'lmish bolajonlarimizning har biri «Tong yulduzi»ni o'qib kamol topsalar.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, maktablarga berilayotgan gazeta-jurnallar soni ko'p. Qay biriga obuna bo'lishni esa o'quvchining o'zi tanlaydi, degan jumlagi ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak. Chindan ham maktablarga tuman, viloyat gazeta va jurnallariga obuna bo'lishga majbur qilishadi. Bu borada shahar va turli tarmoq matbuot nashrlari ham bor. Qiziq, keyingi paytlarda bu obuna yuki ayniqsa ustozlar yelkasiga tushmoqda. Oylik maoshlaridan majburan pul olib qolish odatga aylangan. Beixtiyor o'ylab qolamiz. Sho'rolar davrida har bir bolaga o'z gazetasi va jurnali uchun obuna majburiy edi. Oqibatda bir xonadonga aytaylik uchta o'quvchi bo'lsa, uchta «Lenin uchquni» gazetasi kelardi. Balki shuning uchun bolalar kitobxon bo'lgandir. Balki shuning uchun sho'rolar tuzumi o'z g'oya va qarashlarini bolalar ongiga yoshlikdan oson va tez singdira olgandir? Bir hisobda mamlakat miqyosidagi, yurtimizning tinchlikparvar siyosatini singdirish uchun kerak bo'lsa kattalar o'sha tajribalarga suyanishi kerakka o'xshab qoldi. Ayrim o'quvchilar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan, yarim bahosida o'z o'quvchilari qo'lga yetib borayotgan nashrlar nomini ham bilishmaydi. Bu - borib turgan ko'rlik, savodsizlik-ku?! Bu borada kechagina bolalar nashrlarini albatta o'qib, yangi sonlari kelishini orziqib kutib yashagan kattalar, maktab direktoridan tortib yetakchisigacha o'ylashi shart. Bola tarbiyalayman, o'quvchilarni barkamol avlod safiga qo'shaman degan ustozlar obuna borasida nega loqayd? Xat va qo'ng'iroqlaringizni kutamiz. Obunaga shoshiling, vaqt kutib turmaydi!

Sahifani Ozoda TURSUNBOYEVA va Ma'suda VOHIDOVA tayyorladilar.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Ota-bolani kuzatib qo'yib, loyxonaning ustiga borar ekanman, o'ylab ketaman. Bu yerdagi odamlar bunchalar sodda. Bittasi tomingizni yopib beraman desa, yana bittasi suvog'ini bo'yniga olib tursa. Ajabo, bu nimaning sharofati? Astoydil tavba qilib, ibodatga qoyim bo'lganimning muko-fotlarimikan? Yo odamlar ibodatli kishilarni shunchalar sog'inib qolishganmi? Azon aytish judayam katta martaba emas-ku. Xohlasi hammayam ayta oladi. Masjidning imomi, qishloqning domlasi bo'lish bu chindanam katta martaba. Uyammas, buyammas, odamlar Alloxni sog'inishgan. Boshqa hech narsa emas. Adashib qolgan odam baribir o'z go'shasini, o'z yaqinlarini qo'msaydi. O'xshash go'shalar, o'xshash odamlarni ko'rganda yuragi orziqib ketadi. Qadrdonidek bag'riga bosgisi keladi. Odamlar ham dinsiz jamiyatda uzoq yillar adashib yurishdi. Hatto jinlar ham xuddi odamlardek musulmon va kofirlarga bo'linib yashashini, kofirlari shaytonning malaylari ekani, musulmonlari bo'lsa hech qachon odamlarga zarari tegmasligini bilmadilar. Hatto jinlarni bo'lmag'ur, yo'q narsagayam chiqarib qo'yishdi. Axir Allohning inson va jinlar menga ibodat qilsinlar deb yaratdim degan oyatlari bitilgan kitoblar yoqilib, kuli ko'kka sovrildi-da. Bo'lmasa, Alloh yaratdim degan narsani yo'q, odam maymundan paydo bo'lgan deb kufarga ketisharmidi? Odamlarning qulog'i azonda aytiladigan «Allohu akbar!» - Alloh ulug'dir, zikri o'rni Alloh yo'q (astag'firulloh) degan zo'riovlardan bitib qoldi-da. Mana endi ibodatli har bir odam ko'zlariga avliyo bo'lib ko'rina boshladi.

Shularni ko'ngildan o'tkazar ekanman, yodlab yurgan oyatlarim tilimga keladi. O'zim bilmagan holda takrorlay boshlayman, har xil ohanglarga solib ko'raman. Oyatlarni tajvid qoidalari bilan o'qish kerakligini mutlaqo bilmayman. Xayolimda ertaga og'zidan so'lakayi oqib turgan bolakayni o'qiyman-u, u otasining qo'lidan tushib chopqillab ketadigandek. Ha, bunga men qattiq ishonaman. Bekorga u yigit menga ixlos qo'ymagan. Bo'lmasa, shunday katta qishloqda o'qiydigan odam topilmaydimi? Alloh uning ko'ngliga meni solgan. Hoynahoy, ilashvoyning ta'rif-u tafsillarini eshitgan. Ajabo, dindan mutlaqo

xabari bo'lmagan odamlar ham mana shunaqa tasodiflar bilan mashhur bo'lib ketisharkan?

Hatto katta ko'chalarda o'z-o'zidan «Tabib»,

«Domla ostanovkasi»

degan bekatlar paydo

bo'lib qoladi. Meni ham

oldinda ana shunday

shon-u shavkatlar

kutayotganini sezib

qoldim. Ammo Yo'ldosh

Eshbekning o'zga

sayyoraliklar bilan aloqa

o'rnataman deb

o'rnatolmaganini

eslab,

qo'rqib

ketdim.

Meniyam

shayton

hovliq-

tirayotgan

bo'lmasin,

tag'in?

Uch-

to'rtta

surani yod

olib, azon

chaqirgan,

namoz

o'qigan

bilan

odam

darrovda Allohga yetisha qolmaydi-ku!

O'ttiz pora Qur'onni yod olganlar ham miq

etmay yurishibdi-ku.

Kattaroq loy qorish uchun suv ochib

kelish kerak bo'lib qoldi. Ariqdagi bormi-

yo'qdek jildirayotgan suv bilan ishim

bitmasligini bilib, ketmonni yelkaga

tashlab, quloq boshiga yurdim. Bunday

paytda Oqtosh albatta ergashadi.

To'g'rirog'i, men unga ergashaman.

Oldinda o'ynoqlab yo'l boshlaydi. Ketmon

yelkamda bo'lgach, qayoqqa borayot-

ganimni oldindan biladi jonivor. Quloq

boshiga borsam, suvni katta quloqdan

pastki mahallaga burib ketishgan ekan.

Bog'-hovlidan chiqib, asfalt yo'ldan tepaga

ko'tarilishga to'g'ri keldi. Tashqariga

chiqqanimiz Oqtoshga yoqib ketdi. U tekis

yo'lda ship-ship yurib, battar o'ynoqlardi.

Ichkarida bog'ma-bog' sanqiyverish


joniga tegsa kerak-da. Bu tomonlarda bir

TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV



o'zi izg'igani qo'rqadi. Toqqa chiqqanam, tushganam yonida naq eshakdek-eshakdek itlari bilan yurishadi. Ular Oqtoshni ko'rsayotgan muqim qo'yishlari hech gapmas. Shuning uchun Oqtosh bu taraflarga meni qora qilib chiqadi. Xuddi hayvanot bog'iga ketayotgan yosh boladek o'ynoqlashi shundan. Biz ko'pam yurmagan edik, oldinda bir eski «Zaparojets» ko'rindi. To'xtatish muftasi yaxshi ishlamay qolganmi, qiyalikdan bir to'xtab, bir yurib, ming azobda tushib kelayapti. Oqtoshni yonimga chaqirib, chetroqqa chiqib turdik. Mashina ro'paramizga kelib to'xtadi-da, yana yurdi. Shu payt bir chekkada jim turgan Oqtoshning itligi tutdi. Har doimgidek yon tomonidan tashlanib qoldi. Haydovchi tezlab ketishdan qo'rqib, to'xtatgan edi, Oqtosh uni quvib o'tib, naq ro'parasiga turib qoldi. Mashina qo'zg'alishi bilan oldindan tashlanib qoldi-

yu. Nimadir qarsillab ketdi. Sezdim, mashina uni urib yubordi. Vujudim tok urgandek zirqirab ketdi. Oqtoshning mashina tagiga kirib ketganini ko'rdim. Mashina uni bir zumda qorni bilan jo'valab, orqasidan chiqarib yubordi. Oqtosh avvaliga nima bo'lganiga tushunmay irg'ib o'rnidan turdi-yu, birdan vangillab, oldimga chopa keldi. Afti-angori qon, yer bag'irlab shunday angillardiki, quloqni teshay derdi. Yuragimga sanchiq turib ketdi. Men bo'lsam:

- Ahmoq, ajab bo'ldi, xo'p bo'ldi,-deb o'lganning ustiga tepgan qilib Oqtoshga ketmon o'qtalib yuribman. Oqtosh jon holatda o'zini bog' ichiga urdi. Vajohatimdan qo'rqib ketdi shekilli. Mashinaning urganiyam bir sari-yu mening do'q-po'pisam ham bir sari bo'ldi. Oqtosh ko'rinmas, ammo dod-faryodi dala-bog'ni boshiga ko'tarardi. Ovozini eshitmagan odam qolmadi.

Oqtoshni shu kuniyam, ertasigayam qidirib hech yerdan topa olmadik. Hatto Boymurod aka biron ochiq go'rda yotibdimikan deb eski qabristongacha kirib chiqdi.

- Ha, endi,-dedi Boymurod aka do'ppisini qo'lga olib, - yaxshi it o'ligini ko'rsatmaydi. Hoynahoy bu o'sha, kopir jinlarni ishi, ha, alamlarini olishdiyov shu. Keyin, ko'zam tegib ketdiyov boyaqishga... Attanggina-ya, tug'sa bolasidan olmoqchiydim. Yana kim biladi deysiz, ermanni topib olgan bo'lsa, o'shani ustida ag'anab yotibdimi?

- Erman itgayam davomi? - so'radim ichimda chiroq yonib.

- Ey, siz ermanni bilmabsiz, u qimirlagan jon borki, bariga davo. Bir kuni chaylammi oldida bir ilonni qushlar cho'qilashdi yey cho'qilashdi-qora qoniga botirishdi. O'ldiyov deb kurakni betida pastga otvordim. Ikki kun o'tdimi, uch kunmi, esimda yo'q, qo'shnimiz erman bo'lsa obkelib bering, deb qoldi. Chaylamni pasida bir tup erman o'sib yotardi. O'shani mo'ljal olib tushsam, bir nima vishillaydi. Bundoq qarasam, ilon, ermanga o'ralvolibdi. Anakka deb turgan joyimda qotib qopman. O'ldi deb otvorgan ilonim yara-chaqalari bitib, menga daf qilyapti. Ashinaqa...

(Davomi bor).

QOR

Sokin tun. Qor yog'ayapti. Bolalarning beg'ubor qalbi u lib-toshib oqayotgan daryodan jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'loqlarda oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqlar? Ona tabiat shunday go'zalki, uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchanning oppoq hovuchiga o'nista qo'ndi. Quvonchdan uning yonoqlari shunday yashnab ketdi-ki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg'ubor qizchanning qo'lga tushganidanmi, birdan erib, tip-tiniq tomchiga aylandi.

Bir zumdayoq hammayoq oq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalarini ushlashga intilayotgan bolakaylar, endi undan hovuchlab-hovuchlab olib, qorbo'ron o'ynashardi.

Tun. Hamon qor yog'moqda...

Qatralar

U hamisha ko'm-ko'k. Ona tuproq bag'rida unib, quyoshning zarrin nurlarini emgan damlardan buyon bir xilda o'sadi. Uning rangi ham o'zgarmaydi. Ko'm-ko'k, yam-yashin... Qishning chillasida novdalar oppoq qorlarga burkanganida baxtiyor kelinchakka o'xshab ketadi. Bahorda ham sevimli libosini o'zgartirmaydi. Faqat yangi novdalar yozib, uyg'onish faslini qutlaydi. Yozning jazirasida esa hech nima ko'rmaganday viqor bilan shundayligicha turadi. Tabiatning to'kinchilik fasli bo'lmish kuzda hammayoq oltin rangga chulg'anganida ham, daraxtlar o'zining to'nini yerga tashlaganida ham u avvalgidek yashnab turaveradi. Hech qiyofasini o'zgartirmaydi. Hamma odamlar tabiatida ham daraxtdagi ana shu xususiyat bo'lsa qaniydi...

Jabbor RAZZOQOV.

Sardor RAHIMXON. «Sezam», «Navro'z», «Oriyat-Dono» kabi radio to'liqlari tinglovchilariga juda yaxshi tanish bo'lgan bu nom endilikda estrada qo'shiqlari muxlislari orasida ham keng tanilib boryapti. Sababi, besh yil davomida radioda boshlovchilik qilgan Sardor endi o'zini qo'shiqchilik borasida ham sinab ko'rmoqchi. Buning uchun esa ikki yo'ldan birini tanlashiga to'g'ri keldi va u xonandalikni tanladi.

Xo'sh, xonanda bo'lib, elning nazarida yurishga intilish hissi Sardorda qachon paydo bo'ldi? Yoshlikdagi orzusimidi? Umuman, u bolaligida qanday bo'lgan?..

Yaqinda tahririyatimiz mehmoni bo'lgan umidli xonandaga ana shunday savollar bilan murojaat qildik:



singari ko'plab san'atkorlar bilan tanishdim, ulardan maslahatlar oldim. Saidazim aka Murodxonovga shogird tushib, vokal darslarini olib oshladim.

Radiboshlovchilikni ham, qo'shiqchilikni ham

barobar olib boraman, deb o'ylagan dim.

Afsuski, buning hecham iloji yo'q ekan. Shuning uchun ham ulardan birini tanlashimga

liklari sababini tushunolmasdim. Endi esa anglab yetgandekman: Yosh san'atkorlar orasida yengil-yelpi hayotga, maishatbozlikka, o'yin-kulguga moyillik, ta'qiqlangan narsalarga talpinish kuchli bo'ladi. Ijodiy safarlarda nazorat bo'lmaydi. Ota-onam erishayotgan yutuqlarimni ko'rib, yurak-yurakdan quvonsalar-da, meni ana shunday noma'qul yo'llarga kirib ketishimda xavotirda ekanliklarini endi-endi anglab yetyapman. Lekin bu borada ham mening omadim chopgan. Ulug'bek Rahmatullayevdek har bir qadamimni tergap, nazorat qilib turadigan samimiy do'stim bor. Yana bir ajoyib inson borki, o'sha inson tufayli men o'zimni san'atkor sifatida «kashf etdim» desam, mubolag'a bo'lmaydi. U

RADIOBOSHLOVCHI SARDOR XONANDA BO'LMOQCHI

– Bolaligimda juda sho'x, arazchi, e'tibor talab bola bo'lganman. Buning boisi, oilada o'rtancha farzand bo'lganimdandir balki. Farzandlarning to'ng'ichi va kenjasiga e'tibor kuchli bo'lib, men hammaning nazaridan chetda qolib ketayotgandek tuyulaverardi. Kattalarning e'tiborini tortish uchun eh-he, nimalar qilma-ganlarini. Hatto qo'shnimizning qurib qolgan butalarini yoqib yuborishgacha borganman. Bir necha bor uydan qochib ham ketganman. Meni qidirishsa, rosa xursand bo'lardim...

San'atkor bo'lib, elning nazariga tushishga bo'lgan intilish hissi balki o'shanda paydo bo'lgandir.

Maktabni yomon ko'rardim. Buning sababi, ustozlarim qalbmiga yo'l topa olishmaganida, deb o'ylayman. Nafaqat sinfdoshlarim, hatto ota-onam ham meni tushunishmasdi. Adabiyot ustozim Jamila opanigina o'zimga juda yaqin olardim. Chunki o'z holicha she'rlar mashq qilib yuradigan xayolparastroq bolakayni, ya'ni, meni faqat o'sha insongina tushunardi, nazarimda. Ustoz tufayli murg'ak qalbmida she'riyatga, adabiyotga mehr uyg'ongan, desam xato qilmayman.

Uydagi eng yaqin sirdoshim, she'rlarimning birinchi tinglovchisi ham - buvijonim edilar. Navoiy, Bobur g'azallarini o'qib, ma'nosini so'zlaganimda ular meni diqqat bilan tinglardilar. «Xudo xohlasa, buyuk inson bo'lib, o'zimdanda yaxshi nom qoldiraman» deya niyat qilganimda, «Inshoollo, bolajonim», deya boshimni silab o'tirardilar. Men buvijonimdan juda ko'p narsalarni

– yomonlikka ham yaxshilik bilan javob

qaytarish, insonning qo'li hamisha ko'ksidan tushmasligi lozimligini o'rgandim.

Oilamizdagilar biz kichiklarga katta akamni doimo ibrat qilib ko'rsatishardi. Shundanmi, akam mening nazarimda eng mukammal insonga aylanib qolgandi. Ularga taqlid qilib, Texnika universitetiga o'qishga kirganimdan qattiq afsusdaman. U yerda o'tgan to'rt yillik umrimni san'atga bag'ishlaganimda, o'zim uchun foydaliroq bo'lardi...

Qalbmida san'atga bo'lgan ishtiyoq baribir ustunlik qildi. Uydagilarning qarshiligiga qaramay, radioboshlovchilikka bo'lgan tanlovda qatnashdim. Omad-ni qarangi, tanlovning 550 nafar

ishtirokchisi orasidan tanlab olingan 50 nafar radioboshlovchilar orasida men ham bor edim. Nurmuhammad aka Isroilovdek o'z kasbining ustasiga shogird tushishim esa yutuqlarim garovi bo'ldi. 2003 - yilda «Yilning eng yaxshi boshlovchisi» bo'lganman. Yoshligimda topolmagan narsalarimni radio orqali topdim. «Sirdosh» eshittirishi orqali o'zimga hamfikir insonlarni izladim. Ularning dardini olishga, quvonchiga she'rik bo'lishga intildim. Bir so'z bilan aytganda, radio san'at olamiga kirib kelishimda birinchi pillapoya vazifasini o'tadi. Bu dargohda Nasiba Abdul-layeva, Izzat Ibrohimov

Siz kutgan uchrashuv

to'g'ri keldi va men xonandalikni tanladim. (Buning uchun radio tinglovchilarimdan uzr so'rayman albatta.)

Yaqinda ustozlarim maslahatlariga amal qilib yaratgan «Ishonmasman» nomli taronam shu paytgacha aytgan qo'shiqlarim orasidan o'zimga eng yoqqani bo'ldi. U qalbmida radioboshlovchilik hosil qilgan bo'shliqni to'ldirgandek bo'ldi. Hozirda o'zim hali shogird bo'la turib, sizga shogird tushmoqchiman, deb keladiganlar borligidan quvonaman.

Insonning yoshi ulg'aygani sayin, bolaligida tushunib yetmagan ko'p narsalarni anglab yetarkan. Avvallari san'at olamiga kirishimga ota-onamning qarshi-

kishining ismlarini yozishim shart emas, (o'zlari buni xohlamaydilar, shunaqa kamtarin insonlar) lekin men ulardan bir umrga minnatdorman. Ana shu insonlar tufayli ikki san'atkorning hech vaqt do'st bo'lolmasligi haqidagi gapning asossiz ekanligini, inson faqat o'zi uchungina emas, boshqalar uchun ham yashashi lozimligini anglab yetdim.

Shunda o'z-o'zimga savol berdim: Xo'sh, men kim uchun yashayapman? Men ota-onam uchun, do'stlarim uchun, san'atim va muxlislarim uchun yashayapman. Lekin baribir yuragimning tub-tubida yolg'izman. Chunki o'z muhabbatimni hali topganimcha yo'q...

An'anaga ko'ra, suhbatimiz so'nggida mehmonimizga, gazetamiz o'quvchilariga tilaklaringiz, deya murojaat qilardik. Sardorbekning esa muxlislariimizning ota-onalariga aytar gaplari bor ekan: «Qadrli ota-onalar, farzandingiz qalbida san'atga ishtiyoq sezsangiz, uni aslo so'ndirmang. Undan san'atkor chiqmasligiga ko'zingiz yetsa ham, o'ziga aytib, ko'nglini cho'ktirmang. Yana bir imkon bering. Balki undan ajoyib san'atkor chiqar. Chiqmasa ham, ko'ngli o'zidan qolgani ma'qul».

Ko'pincha san'atkorlar bilan suhbatlashganimizda, gapga no'noqroqman, keling, yaxshisi bitta qo'shiq kuylab bera qolay, deyishadi. Hali ancha yosh bo'lsa-da, shirali ovozi, oldiga qo'ygan aniq maqsadi, o'z mustaqil fikri va aytar so'ziga ega bo'lgan Sardorbekka biz ham astoydil havas qildik va niyatlari ijobatini tilab qoldik.

Feruza JALILOVA.



TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
BotirUBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 13279

Buyurtma N: J 1876

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manziliimiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./faks:
(99871) 144-24-45